

Muyiddin Ibn Arabiyning Tasavvuf Ta'limotida Tahsil Olgan Ayol Ustozlari Va Ta'lim Bergan Ayol Shogirdlari

Yarashova Mohlaroyim Shuhratovna¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada musulmon olamida insonni axloqiy va ruhiy yetuklik sari yo'naltiruvchi ta'limot tasavvuf ta'limotning rivojiga munosib hissa qo'shgan ulug' alloma, mutafakkir va mutasavvif, so'fiy, shoir va adib, mufassir va ilohiyotshunos Muhyiddin ibn Arabiy kamolotida munosib hissa qo'shgan ayol ustozlari va bevosita ibn Arabiy ilmlaridan bahramand bo'lган ayol shogirdlari haqida atroflicha ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, renessans, aqida, mutasavvif, ijтиҳод, tariqat, xirqa.

Musulmon olamida insonni axloqiy va ruhiy yetuklik sari yo'naltiruvchi ta'limot tasavvuf hisoblanadi, ta'limotning rivojiga munosib hissa qo'shgan ulug' allomalar, mutafakkirlarimiz : Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy ,Najmuddin Kubro, Xoja Bahounddin Naqshband, Ya'qub Charxiy kabi markaziy osiyodan yetishib chiqgan buyuk daholar soni ko'pchilikni tashkil qiladi. Ularning orasida Andalusiyalik (Ispaniya) mutafakkir va mutasavvif, so'fiy, shoir va adib, mufassir va ilohiyotshunos Muhyiddin ibn Arabiy (1165-1240) nomi bor.

Bu ulug' zot birinchi va ikkinchi Renessans oralig'ida ya'ni transformatsiya davrida yashab ijod etdi. U Andalusiyadagi nasroniy, musulmon va yahudiy jamolari orasida mavjud bo'lган diniy va aqidaviy masalalardan to'la xabardor bo'lган holda o'sib ulg'aydi. Uning otasi va bobosi Andalusiyada juda katta diniy martabalarda faoliyat ko'rsatgan, tog'alari esa tasavvufda katta shuhrat qozongan kishilar bo'lган.

Ibn Arabiy juda yuksak saviyali ziyoli oilada va muhitda katta bo'ldi. Dastlab, oilada, keyin esa o'z davrining yetuk olimlari qo'lida shar'iy ilmlarni egalladi. Yoshligidan tasavvufiy ilmlarga ham qiziqli va Tamimiyy, Uraybiy kabi o'sha davrning yetuk mutasavvif va so'fiylari qo'lida tahsil oldi.

Ibn Arabiy ilmni kimdan olish krak bo'lsa, undan oldi. U zamonasining zabardast olima ayollaridan ham tahsil oldi. Bular qatoriga uning o'zi "Ruhul quodus fi muhasabatin nafs" ("Nafsi hisob-kitob qilishda Muqaddas Ruhning o'rni") asarida ma'lumot berib o'tadi.

Shunday ustozlaridan biri so'fiy ayol Fotima bintu Abil Musannadir. Ibn Arabiy uni "U ijтиҳod darajasiga yetgan ayollardan edi. Men bu ayol ibodat qilganichalik ibodat qilgan na bir ayol va na bir erkakni ko'rdir", deb uning ruhiy holati ham yuqori bo'lganini e'tirof etadi.

Bu ayol boshqa shogirdlariga nisbatan Ibn Arabiyga o'zgacha mehr bilan qaragan. Bu ayol Ibn Arabiyning ilmlarni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatini maqtab, boshqalarga o'rnat qilganligini yozadi: "Oldimda turganlarning ichida hech kim Ibn Arabiychalik menga yoqmaydi – dedi u bir kuni. "Nima sababdan?" – deb so'radilar. U aytdi: "Sizlar mening oldimga kelgan paytingizda bir qismingizni olib kelasiz. Qolgan qismlaringiz uyingizda yoki boshqa yaqinlaringizda qoladi. Ibn Arabiy bunday emas – u oldimga kelsa, to'liq o'zi bilan keladi. Oldimda o'tirsa, to'liq o'tiradi. Tariqat degani ana shu"²".

Ibn Arabiy o'ziga ustoz sifatida sanab o'tganlardan yana bir ayolning nomi Shams Ummu-l-fuqaro (Kambag'allar onasi Shams)dir. Uni ham ibodatda ijтиҳod darajasiga yetganligini aytadi: "U ijтиҳodga

¹ Osiyo xalqaro universiteti Tarix va Filologiya kafedrasi o'qituvchisi, Buxoro davlat universiteti, Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi, Mustaqil izlanuvchisi

²Ибн Арабий. Рухул қудус фи муҳасабатин нағс. Дамашқ: Матбаъату Назр, 1994. 84-85-бетлар.



yetganlarning ulug‘laridan edi. O‘z fikrlariga to‘la hokim edi. Saksondan oshib qolganliga qaramay doimo ro‘za tutar edi. Boshqalarning fikrini bilib turar edi. Ilohiy sirlarni to‘g‘ri kashf qilar edi. Men undan ko‘p ajoyibotlarni ko‘rganman.

Bir kuni men va Abdulloh ibn Ustoz ikkiovimiz uning oldida edik. U uyning bir tomoniga qarab: “Ey Ali, dastro‘molingni ol!”, deb qichqirdi. Biz undan: “Kimga aytyapsiz?”, deb so‘radik. U: “Ali mening ziyoratimga kelayotgan edi. Suv bo‘yiga kelgach, o‘tirib ovqatlandi. Dastro‘molini unutib turib ketdi. O‘sani olsin deb unga qichqirdim”, dedi. Suv bo‘yigacha bir farsax (8 km) masofa bor edi. Bir soatlardan keyin Ali kirib keldi. Biz ikkimiz undan yo‘lda nima voqeа ro‘y bergenini so‘radik. U bu yerga kelayotganida daryo bo‘yida o‘tirib ovqatlangani va turib ketayotganida dastro‘molini unutib qoldirgani, shu payt Shams Ummul fuqaroning “Ey Ali, dastro‘molingni ol!”, degan ovozini eshitib, qaytib borib uni olganini aytib berdi”³.

Ibn Arabiy shu kabi ulug‘ ayol ustozlaridan Joriya Qasimud davla haqida ham iliq xotiralarini yozib qoldiradi: “U vaqt sayyidasi edi. Tariqatda o‘zining yo‘liga ega ayol edi. Agar u biron yerga sayohat qiladigan bo‘lsa, unga yo‘ldagi tog‘lar-u toshlar, daraxtlar “Marhabo, xush keldingiz”, deb ovoz chiqarar edi. Holi juda kuchli bo‘lib, Allohning xizmatkorlaridan biri edi”, deb xotirlaydi.

Bulardan tashqari u ayol ustozlari sirasiga Zaynab al-Qal’iyya, Ummuz Zahro, Faxrunnis binti Rustam kabilarni ham sanab o‘tgan va ularning har qaysisining o‘ziga xos sifatlarini bayon qilgan hamda ularning tariqatidagi o‘ziga xos va takrorlanmaydigan Haqqa yetishish yo‘llari usullarini aytib o‘tgan.

Muhyiddin ibn Arabiy ayol ustozlardan dars o‘qish bilan birgalikda o‘zi ustozlik darajasiga yetgach juda ko‘p erkak shogirdlari qatorida bir necha ayol shogirdlarni ham tarbiyalaydi va ularga tariqat sirlarini o‘rgatadi, hatto bir qanchasiga xirqa kiyadiradi.

Ulardan Fotima, Safiya, Sittul Aysh, Dunyo, Joriya, Bintu Zakiyiddin, Sittul Obidin kabilarni sanab o‘tish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Ibn Arabiy hayotida va ijodida, ilmiy va ma’rifiy rivojida ayollarning ta’siri juda katta bo‘lgan. O‘rta asr ayollarini Ibn Arabiydek ulug‘ insonni tarbiyalashda o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shishgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar.

1. Ибн Арабий. Рухул қудус фи муҳасабатин нафс. Дамашқ: Матбаъату Назр, 1994. 84-85-бетлар.
2. Toshpo’latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
3. Toshpo’latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
4. Toshpo’latova, S., & Jo’rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
5. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.
6. Toshpo’latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research*, 3(2), 87-93.
7. Toshpo’latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV-O’RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.

³ Ибн Арабий. Рухул қудус фи муҳасабатин нафс. Дамашқ: Матбаъату Назр, 1994. 84-85-бетлар.



8. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004-1011.
9. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.
10. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. *Modern Science and Research*, 3(1), 504-510.
11. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). MS Andreyev'S Way Of Life. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 655-659.
12. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). Marriage Ceremony Of Tajiks In The Work Of Mikhail Stepanovich Andreyev "Tadjiki Dolini Khuf". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12-16.
13. Shuhratovna, T. S. (2023). Ethnological Analysis Of National Costumes And Rituals Of Tajiks In The Works Of MS Andreyev. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42-47.
14. Toshpo'latova, S. (2023). MS Andreyev-Scientific Career. *Modern Science and Research*, 2(12), 801-807.
15. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17-23.
16. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV-" ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404-409.
17. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDARICAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291-299.
18. Toshpo'latova, S. S. (2023). Tojiklar Milliy Kiyim-Kechaklari Va "Beshmorak" Marosimining Etnologik Tahlili. *Scholar*, 1(28), 395-401.
19. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84-89.
20. Gadayeva, M., & Hamroqulova, N. (2024). THE BASIS OF THE USE OF DEVELOPMENT-PEDAGOGICAL SKILLS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY. *Modern Science and Research*, 3(2), 684-689.
21. Gadayeva, M., & Ismoilova, Z. (2024). THE IMPORTANCE OF STUDYING THE SCIENCE OF YOUTH PSYCHOLOGY IN IMPROVING PEOPLE'S LIVES. *Modern Science and Research*, 3(2), 676-683.
22. Gadayeva , M . (2024). ABOUT THE HISTORY OF THE VEIL OR MEDIEVAL WOMEN'S DRESS. *Modern Science and Research*, 3(2), 1097–1103. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29537>
23. Universiteti, G. M. M. O. X. (2023). UCHINCHI RENESANS DAVRIDA AJDODLARIMIZ MEROSINI ORGANISH ORQALI INTEGRATSION TA'LIMNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI: ЧАСТЬ 1 ТОМ 1 ИЮЛЬ 2023 год. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 1(1), 11-16.
24. Gadayeva Mohigul Muxamedovna. (2023). HISTORY OF PATRIOTIC WOMEN . *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 69–75. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-12>
25. Gadayeva, . M . (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459–464. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25292>



26. Gadayeva, M. (2024). EFFECTIVE WAYS TO USE THE "THOUGHTSTORM" METHOD ON THE THEME OF THE "EASTERN RENAISSANCE" ERA. *Modern Science and Research*, 3(1), 1024–1027. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28631>
27. Gadayeva, M. (2024). ATTACK ACTION. *Modern Science and Research*, 3(1), 1028–1033. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28634>
28. Gadayeva , M. (2023). ONE OF THE TIMURID QUEENS IS BIBIKHONIM. *Modern Science and Research*, 2(12), 749–754. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27189>
29. Gadayeva Mohigul Muxamedovna. (2023). INNOVATSION TA'LIM-BUYUK KELAJAK POYDEVORI . *World Scientific Research Journal*, 17(1), 74–76. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2767>

